ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA MUMTOZ AN’ANALAR DAVOMIYLIGI

Ra’no Payzullayeva
Navoiy innovatsiyalar universiteti
E-mail: ranofayzullayeva8@gmail.com

Qabul qilindi: 03.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 04.11.2025
Tasdiqlandi: 05.11.2025

Kalit so‘zlar:
lirika, mumtoz janrlar, g‘azal, muxammas, masnaviy, ruh, qahramon, tarjima, ilhom.

Ключевые слова:
лирика, классические жанры, газал, мухаммас, маснави, дух, герой, перевод, вдохновение.

Keywords:
lyric, classical genres, ghazal, muhammas, masnavi, spirit, hero, translation, inspiration.

Annotatsiya: Ushbu tezisda Sirojiddin Sayyidning aruz vaznidagi muvaffaqiyatlari, muxammas yaratishdagi mahorati haqida so‘z boradi. Mumtoz she’riyatimizning yetakchi janrlaridan hisoblangan muxammas haqida nazariy ma’lumotlar berishga harakat qilingan.

Аннотация: В статье рассматриваются достижения Сироджиддина Сайида в весе сна, его мастерство в создании мухаммасов. Сделаны попытки дать теоретические сведения о мухаммасе, одном из ведущих жанров нашей классической поэзии.

Annotation: The article deals with the achievements of Sirojiddin Sayyid in the dream weight, his skill in creating muhammas. Attempts have been made to provide theoretical information about muhammas, one of the leading genres of our classical poetry.

XX asr boshlariga qadar o‘tgan davr o‘zbek adabiyotida lirika yetakchi tur bo‘lib keldi. Nasriy asarlarning ham ko‘p qismida she’riy baytlar, hikoyat va masallar keltiriladi. Nasriy (epik) tur janrlari ancha cheklangan bo‘lsa, lirikaning janrlari ko‘p bo‘lgani, ularning har biri o‘ziga xos janriy xususiyatlarga ega bo‘lgani lirika mumtoz adabiyotimizning badiiy tafakkur vositasi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda esa epik tur janrlari shu qadar ko‘p, xilma-xil va rang-barangki, ijodkorning voqelikni badiiy aks ettirishda imkoniyatlari nihoyatda ortib ketgan. Badiiy poetik tafakkurda buyuk o‘zgarishlar yuz bergan hozirgi kunda ham mumtoz adabiyotimiz lirik janrlari, adabiy vositalar, me’yor va mezonlar yashab kelmoqda, shoirlarimiz mumtoz she’riyatimiz janrlari va badiiy vositalariga murojaat qilishib, bugungi voqelikni poetik aks ettirishda katta muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. G‘azal, tuyuq, ruboiy, masnaviy, qasida, muxammas janrlarida yaratilgan eng yaxshi asarlarda adabiy janrlar qaysi davrda bo‘lmasin, hamisha poetik fikrni go‘zal tarzda ifodalashning vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Mumtoz adabiyot an’analari va tajribalariga murojaat qilinar ekan,

albatta, birinchi navbatda Alisher Navoiy adabiy merosi ijodkorlarimiz uchun namuna, ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

“Mumtoz she’riyatimizda keng tarqalgan lirik janr g‘azaldir. ...G‘azal kishiga xos hamma hislar doirasini qamrab oladi; unda hatto sevgi mavzusi asos bo‘lgan taqdirda ham umumaxloqiy va falsafiy fikrlar izhor etilishi mumkin”, deydi adabiyotshunos, akademik Izzat Sulton[1].

Oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida “G‘azalning birinchi bayti matla’ yoki mabda’ deb ataladi. Ikkinchi baytning ikkala misrasi ham qofiyadosh bo‘lsa, matla’ning zebi (zebi matla’) yoki matla’ husni (husni matla’) deyiladi. G‘azalning oxirgi bayti maqta’ yoki xotima, deb ataladi, unda ko‘pincha shoirning taxallusi bo‘ladi”, deb tushuncha berilgan[2]. B.To‘xliev Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yozgan “Adabiyot” darsligida “Qisasi Rabg‘uziy”da turkiy tilda yaratilgan ilk g‘azalni keltirib o‘tadi. Navro‘zga bag‘ishlangagn bu g‘azal janrning barcha talablariga javob berishi, g‘azalning so‘nggi bayti-maqta’da g‘azal muallifining ismi sharifi keltirilganligini ta’kidlaydi. Turkiy adabiyotda keng tarqalgan ramal bahrida yozilgani, vaznning to‘liq nomi ramali musammani maxzuf deb atalashini qayd etadi.[3]

XX asr o‘zbek she’riyatida Habibiy, Charxiy, Chustiy, Sobir Abdulla singari g‘azalnavis shoirlar, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol singari adabiyotimiz tarixidan mustahkam o‘rin olgan so‘z san’atkorlari g‘azalning yangilanishi, mavzu rang-barangligiga erishish, ijtimoiy-falsafiy mazmunning kuchayishiga katta hissa qo‘shishdi. Keyingi avlod vakillari orasida ham g‘azal janrida o‘z iste’dodlarini sinab ko‘rayotgan ijodkorlar ko‘p. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ana shulardan biri. Uning “Onamning kulchalari” to‘plamidan ko‘plab g‘azallar, muxammaslar, masnaviylar o‘rin olgan. “Xamsa” hayratlari” turkumi va “Dog‘ini Majnun qonatmish” turkumiga kirgan g‘azallar, muxammaslar, masnaviylar shoirning mumtoz she’riyatga chin oshufta ekanligini ko‘rsatadi. Mumtoz she’riyat janrlarida ijod qilish chinakam iste’dod talab etadi. Chunki g‘azal bitayotgan ijodkor ko‘z o‘ngida olti asrdirki bu janrning mumtoz namunalarini yaratgan, yuksak tog‘ cho‘qqisi kabi ulug‘vor Hazrat Alisher Navoiy siymosi turadi. Shuning uchun g‘azal bitish, muxammas bog‘lash, tatabbu’ yoxud tazmin g‘azal yaratish nihoyatda qiyin va mas’uliyatli ishdir.

Muxammas har bandi besh misradan iborat she’riy janr. Nazariy manbalarda uning ikki turi mavjudligi qayd etiladi. Birinchisi shoirning o‘z g‘azaliga muxammasi, ikkinchisi boshqa bir shoirning g‘azaliga qilingan

[1]Султонов Иззат, Адабиёт назарияси, дарслик, Қайта ишланган ва тўлдирилган учинчи нашри, “O`qituvchi” нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент, 2005 й. Б.178.

[2]Худойбердиев Эркин, Адабиётшуносликка кириш, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2008 й. Б.267.

[3]Тўхлиев Боқижон, Адабиёт, Академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари учун дарслик, Тошкент, “Ўқитувчи”, 2002 й. Б.177.

muxammasdir. Bu janrda ham Navoiy mumtoz namunalarni yaratgan. Muxammas bog‘lash qiyin vazifa. Chunki bir shoir g‘azali baytlariga qo‘shiladigan misralar bayt mazmuniga yanada teranlik bag‘ishlashi, ko‘zda tutilgan badiiy estetik maqsadning ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qilishi lozim. Buning uchun muxammas ijodkori g‘azal ijodkorining fikr-o‘ylari, tuyg‘u va hayajonlarini chuqur his etishi, g‘azal yaratilayotgan lahzalardagi shoir ruhiy olamini tasavvur qila olishi va shu ruhiy olamga kira olishi zarur. Bunda eng ko‘p ibratni Navoiy yaratgan muxammaslardan olish mumkin.

Alisher Navoiyning mukammal asarlar to‘plami 1-jildidan “Badoe’ ul-bidoya” devoni o‘rin olgan. Bu devonda 5 ta muxammas keltirilgan. Shulardan 2 tasi Navoiyning o‘z g‘azaliga, 3 tasi ustozi Lutfiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslardir. Lutfiyning “Ko‘kdadur har dam fig‘onim...” deb boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan muxammasda har bir bayt boshiga qo‘shiladigan uch misra baytlarda ifodalangan mazmunga shu qadar mos, mantiqan bog‘langanki, ikki daho so‘z san’atkorining fikr-o‘ylari, his-tuyg‘ulari shu qadar uyg‘unlik kasb etganidan kishi hayratga tushadi.

Sen kibi sultonni sevmak haddim ermastur, vale
Bu baloliq ishq farq etmas gadovu shohni,

deydi Lutfiy hazratlari. Oshiqning ma’shuqaga iltijosi, iztirobining sababi ravshan. Mumtoz adabiyotda ma’shuqa go‘zallik timsoli, oliy jamolning ko‘zgusi. Ilohiy ishq qudrati hamisha oshiqni mastu mustag‘riq etadi, uni yuksak jur’atlarga chorlaydi va uni ma’shuqa visoliga etishish orzusiga sazovor etadi. Navoiy hazratlari oshiqning orzu-istaklarini yana ham bo‘rttiradi, undagi jur’atning kuch-qudratini yanada ravshanroq, yanada oydinroq ifoda etilishiga erishadi:

Ey, g‘ubori markabing kun ko‘zgusining sayqali,
Nechakim men bir gado, sen podshohdursen, bale,
Yo‘q ajab, sen husn shohni mayl qilsam sevgali,[4]

deydi-yu, bunga qanday jur’at etganligiga Lutfiy javob beradi, oshiqning husn sultonini sevishiga haddi sig‘maydi, ammo ishq degan balo gadoni ham, shohni farqlamaydi.

Sirojiddin Sayyid Alisher Navoiy dahosi oldida bosh egib, hamisha undan madad va ilhom olishini, uning she’riyatiga chin dildan ixlos qilganligini, shuning uchun qo‘liga qalam olganida doim ijodkor sifatidva zimmasidagi mas’uliyatni chuqur his etishini mumtoz she’riyatimiz an’analari yo‘lida ijod qilgan har bir asarida buni namoyon etishga harakat qiladi. “Onamning kulchalari” to‘plamida “Xamsa” hayratlari” turkumi so‘zboshisida ham bu e’tirofni ko‘rish mumkin:

“Bobomizning o‘zlari niyat qilganday, ul zotni duo va tavoze bilan yod aylab, ruhi poklari va baland maqomidan madad so‘ragan holda “Hayrat ul-

[4] Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами, Биринчи том, “Бадойиъ ул-бидоя”, Тошкент, 1987 й. Б.588.

abror"dagi eng hayratga solgan satrlarga yurak betlab o‘z hayratlarim va ko‘nglimdan kechgan gaplarni nazmiy yo‘sinda ifodalashga jazm qildim"[5].

Ana shunday xoksorliklardan keyin shoirning "Hayrat ul-abror" mutolaasidan olgan zavq-shavqi mevalarini tatib, muxammaslaridagi omuxtalikni his etib, mumtoz she'riyatga oshuftalik sizda ham ortishi, shubhasiz.

Alisher Navoiyning "Junun vodiysig‘a moyil..." deb boshlanuvchi g‘azali chuqur ijtimoiy-falsafiy, ishqiy-intim tuyg‘ularning ruhiy-ma'naviy holatni teran ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. G‘azalda zamona norasoligi, falak bedodligi, yoru diyorning bevafoligidan oshiqning chorasizligi, shundan bag‘ri qonga to‘lganligi tasvirlangan. G‘azal matla'sidayoq charxi kajraftorning o‘yinlaridan zada ko‘ngilning faryodi eshitiladi:

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzulg‘on ro‘zgorimni[6].

Lirik qahramon holati telbalik vodiysiga o‘xshaydi, ya'ni u telbaga aylangan, shunday ekan, uning uchun endi baribir, ro‘zg‘ori–hayot tarzi butunlay buzilib ketishiga ham rozi. Muxammas bog‘laganda uning ijodkori baytda ifodalangan fikrni rivojlantirishi, bayt oldidan qo‘shiladigan uch misraning har biri o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lishi va bayt mazmunini yana ham teranlashtirishi, unga baquvvat badiiy bezak bo‘lishiga erishishi lozim.

Nima uchun shoirlar o‘z g‘azaliga muxammas bog‘lashadi? Alisher Navoiyda bu hol ko‘p uchraydi. Chunki biror g‘azalida shoir ko‘nglidagi bor gapni aytolmagan bo‘ladi. Muxammas bog‘lash orqali g‘azalda ko‘zda tutilgan badiiy estetik maqsadni yana ham ochiq, yorqin va ta'sirli ifodalashga erishadi. "Judo" radifli g‘azalida shu holni ko‘ramiz. Bu shoirning keng tarqalgan, o‘ta musiqiy, o‘ynoqi, shu bilan birga dardchil g‘azallaridan. Ramali musammani maxzuf bahrida yozilgan g‘azalga qayta murojaat qilib, uni mazmunan yanada kuchaytirgan, ta'sirchanligini oshirgan. Birinchi bayt ayniqsa, mashhur:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.

Bulbulning gulistondan judo bo‘lib sayramasligi, to‘tining shakardan mahrum etilishi gapirmasligiga sabab bo‘lishi haqidagi xulosasi etarli emasdek tuyulgan va buni yana ham ishonarli, ta'sirchan bo‘lishi uchun bayt oldidan uchta misra kiritadi. Bu misralar bayt mazmuniga shu qadar omuxta bo‘lib ketganki, baytda ifodalangan mazmun mohiyatiga endi to‘la etasiz va g‘azalni o‘qigandagidan ko‘proq lazzatlanasiz. Mana o‘sha kishini lol qiladigan misralar:

Ohkim, volamen ul sarvi xiromondin judo,
Ko‘zlarim giryondur ul gulbargi xandondin judo,
Benavodur jon dog‘i ul huri rizvondin judo.[7]

---

[5] Саййид Сирожиддин, Онамнинг кулчалари, Тошкент, "O`zbekiston", 2017 й. Б.131.
[6] Ўша асар, Б.110.
[7] Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами, Биринчи том, "Бадойиъ ул-бидоя", Тошкент, 1987 й. Б.591.

Sirojiddin Sayyid zimmasidagi mas'uliyat esa nihoyatda katta. Hazrat Alisher Navoiydek buyuk so‘z san'atkori bilan bahsga kirishish, uning g‘azalidagi mazmun-mohiyat, badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi, she'riy san'atlarni jilolantirish oson emas. Buning uchun Navoiyga chinakam hamfikr, hammaslak bo‘lish, g‘azalni yaratayotgan chog‘da shoir kechirgan, his qilgan tuyg‘ularni to‘la idrok eta olish, shoir yuragi, qalbi tug‘yonlarini o‘z qalbidan, yuragidan o‘tkaza olishi zarur. Muxammasni mutolaa qilganda ko‘p o‘rinlarda muxammas ijodkori bu mas'uliyatni ancha teran tushungan va g‘azalda ifodalangan lirik qahramon ohu nolasi, dard to‘la fig‘onini yana ham ta'sirchan bo‘lishiga harakat qilgan. Dastlabki bayt mazmuniga omuxta ushbu misralarni ijod qilgan:

Qayon keldim, bilolmam o‘lturorim yo turorimni,
Boshim qoru, qarolik chulg‘amish tog‘larda qorimni,
Uzibmish dahri dun mehnatlari ko‘ngulda torimni,[8]

misralaridan keyin kelgan bayt mazmuni shu uch misraning xulosasi sifatida mazmunan bir-biriga singib ketgan.

Ikkinchi bayt boshiga qo‘shilgan misralar ham shunday juda o‘rinli, o‘z o‘rniga tushgan:

Birovning ko‘yida men necha yillar intizor o‘ldum,
Hajr bozorida dardu baloga mardikor o‘ldum,
Agarchi barcha bir bor o‘lsa, men yuz ming bor o‘ldum,

degan hukm-xulosalarga g‘azalning ikkinchi baytidagi mazmun juda mos tushadi va undagi keskinlik, qat'iylik, fojeiy yakun qalbni larzaga soladi:

Falak bedodidin garchi meni xokiy g‘ubor o‘ldum,
Tilarmen topmag‘aylar to‘tiyolikg‘a g‘uborimni.

Keyingi baytlarga qo‘shilgan muxammas misralari ham bayt mazmuniga mosligi, baytdagi mazmunni yanada kuchaytirishga xizmat qilganligi bilan muxammas ulug‘ so‘z san'atkori bilan uning chinakam muxlisi, shogirdi, zamondoshimiz jur'at bilan qalam tebratganligiga tan beramiz. Fikrlarimiz xulosasi sifatida so‘nggi baytga murojaat qilaylik. Sirojiddin Sayyid lirik qahramonning ohu fig‘oni, bekanor dardu dunyosi, armonu afg‘onini so‘ng nuqtaga etkazadi:

Umr otini, kelgay kunki, minmoq mumkin ermastur,
U kun shudringdayin barglarga inmoq mumkin ermastur,
Sinibsen shunchalarkim, endi sinmoq mumkin ermastur,

degan ohu fig‘on sababini so‘nggi bayt izohlaydi. Bu shunday izohki, yuqoridagi uch misra mazmuni chaqilmasa, baytda ifodalangan fikr mavhumroq bo‘lib qolgandek tuyuladi. “Mumkin ermastur” degan hukm-xulosa mohiyati so‘nggi baytda aniq va ravshan echiladi:

Jahon tarkini qilmay chunki tinmoq mumkin ermastur,

[8]Саййид Сирожиддин, Онамнинг кулчалари, Тошкент, “O`zbekiston”, 2017 й. Б.110.

Navoiy, qil meni ozod o‘rtab yo‘qu borimni.

G‘azal hazaji musammani solim vaznida yaratilgan. Baytlarning har bir misrasida mafoiylun rukni to‘rt marta kelgan va bu baytda sakkiztani tashkil etib, solim shaklini vujudga keltirgan. Baytlarning har biriga boshidan qo‘shilgan uchta misra ham ana shu talabga to‘la javob beradi. Bu muxammas ijodkori mumtoz she’riyatimizda asosiy she’riy o‘lchov bo‘lgan aruz vaznini mukammal o‘rganganligi va undan mahorat bilan foydalana olganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari Sirojiddi Sayyid Atoyi, Bobur g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Sheroziy, Rumiydan qator tarjimalar qilgan. Ularning hammasida u o‘zining mumtoz adabiyotimizni yaxshi bilishini, unga chin dildan ixlos qilganligini namoyon etgan. Shu sababli shoir qalamidan ilhom bilan to‘kilgan g‘azallar, masnaviylar, muxammaslarda shoirning poetik mahorati, o‘ziga xosligi ko‘rinib turadi.